

# СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддиқова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масбул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Узбекистан)

**Якуб Умар оглы**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Куренов Рахыммамед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Балтабоев Ҳамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дустмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сиддиқова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarkhodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Murodova Mo'tabar Ibodullayevna</b> TILAKLAR VA OLQISHLARNI NUTQIY AKTLAR SIFATIDA LINGVISTIK NUQTAI NAZARDAN TAHLILI...	5
<b>2. Yusupova Soxiba Islombek qizi</b> O'ZBEK BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI.....	9
<b>3. Lolayeva Gulniso Geldiyorovna</b> GAZETA MATNINING UMUMIY VAZIFALARI.....	13
<b>4. Sharopova Ra'no, Karimova Latofat</b> HOZIRGI O'ZBEK TILIDA "TARBIYA" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TARKIBI VA TASNIFIQA OID QARASHLAR.....	18
<b>5. Намазова Манзура Ураковна</b> ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ И ЧАСТИ ИММИГРАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.....	24
<b>6. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna</b> AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	32
<b>7. Esirgapov Mukhiddin Nizomiddinovich</b> THE INFLUENCE OF THE INTERNET AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE ENGLISH LANGUAGE.....	37
<b>8. Karimova Dilorom Shavkatovna</b> VERBAL AND NON-VERBAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF "DEATH" AND "LIFE".....	43
<b>9. Narzullaeva Dilnoza Sanatovna</b> CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: EXPLORING THE ROLE OF METAPHOR IN CONCEPTUALIZING ABSTRACT CONCEPTS.....	48
<b>10. Шахзод Турниязов</b> ЎЗБЕК ТИЛИГА ҚИЛИНАЁТГАН ЗАМОНАВИЙ БАДИИЙ ТАРЖИМАЛАРДА МУАЛЛИФ УСЛУБИНИ САҚЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР (О. ГЕНРИ ҲИКОЯЛАРИ МИСОЛИДА).....	52
<b>11. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna</b> XALQ OG'ZAKI IJODI VA MIFOLOGIK MANBALARDA UCHRAYDIGAN FITONIMLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	63
<b>12. Алена Ядмагиевна Иванова</b> ВЛИЯНИЕ КОНФУЦИАНСТВА НА ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИЙ.....	68
<b>13. Yunusova Gulshoda Dilshadovna</b> EKVIVALENTLIK VA FE'L VALENSIYASI.....	80
<b>14. Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li</b> O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH METODOLOGIYASI.....	85
<b>15. To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi</b> PEYZAJ BADIY VOSITA SIFATIDA (O'ZBEK VA QORAQALPOQ SHE'RIYATI MISOLIDA).....	91
<b>16. Холбобоева Нилуфар Бахтиёр кизи</b> НАВОИЙГА ТАХМИС.....	96
<b>17. Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич</b> И. ЮСУПОВНИНГ «ДАЛА АРМОНЛАРИ» ПОЭМАСИДА ИНДИВИДУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА БАДИИЙ ВАЗИФАЛАРИ.....	102
<b>18. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	106
<b>19. Xolova Muyassar Abdulhakimovna</b> O'ZBEK SHEVALARIDA FONETIK O'ZGARISHLAR (Surxondaryo viloyati misolida).....	111
<b>20. Malika Soliyeva</b> INGLIZ TILIDAGI INTONATSIYANING AYRIM FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI.....	118
<b>21. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ ХУСУСИДА.....	122

<b>22. Xurinsa Xudoyberdiyeva</b> TROPLARNING USLUBIY XUSUSIYATI (Xosiyat Rustamova lirikasi misolida).....	128
<b>23. Israilova Sayera Tashpulat qizi</b> INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (Tarix yo‘nalishi talabalari uchun).....	133
<b>24. Israilova Sayera Tashpulat qizi</b> INGLIZ XALQ ERTAKLARI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.....	137
<b>25. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	143
<b>26. Робиға Мамбетова</b> ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	149
<b>27. Ҳамидулла Годжиев</b> ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ УМУММАЪРИФИЙ – УМУМАДАБИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	154
<b>28. Ergashova Rano Turaevna</b> LINGUISTIC FEATURES OF AVIATION TERMINOLOGY IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES: SPECIFICITIES AND COMMONALITIES.....	160
<b>29. Bobir Maxammadov</b> MIKROSOFT VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI MASALALARI: MUAMMOLAR VA VAZIFALAR.....	170
<b>30. Xalimova Firuza Rustamovna</b> POETIK MATNDA BADIY KONSEPTLAR VA METAFORALARNING KOGNITIV-ESTETIK TALQINI.....	176
<b>31. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	182
<b>32. Матлуба Шукурова</b> ЭНАХОН СИДДИҚОВА ШЕЪРИЯТИДА “АЁЛ” КОНЦЕПТИНИНГ АКТУАЛЛАШУВИ.....	187
<b>33. Tashkulova Zarnigor</b> “SHARQ” KONSEPTI SEMANTIK MAYDONIDA PEYZAJNING IFODALANISHI (S. MOEM HIKOYALARI MISOLIDA).....	195



**Israilova Sayera Tashpulat qizi**


Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Tillar va maktabgacha ta'lim katedrasi mudiri

Filologiya fanlari bo'yicha falasafa doktori

e-mail: sayyora.is@mail.ru

## INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILIDA O'QISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (*Tarix yo'nalishi talabalari uchun*)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17087420>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada interfaol o'qitish usullari orqali tarix yo'nalishi talabalari orasida ingliz tilida o'qish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, o'qish ko'nikmasining komponentlari, tarixiy matnlar bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolar, interfaol metodlarning turlari va ularning amaliy natijalari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** o'qish ko'nikmasi, interfaol metodlar, ingliz tili, tarixiy matn, til kompetensiyasi, kontekst, tahlil, talaba.

### ABSTRACT

This article discusses the issues of forming and developing reading skills in English among history students through interactive teaching methods. It also analyzes the components of reading skills, problems that arise when working with historical texts, types of interactive methods and their practical results.

**Keywords:** reading skills, interactive methods, English, historical text, language competence, context, analysis, student.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы формирования и развития навыков чтения на английском языке у студентов-историков посредством интерактивных методов обучения. Также анализируются компоненты навыков чтения, проблемы, возникающие при работе с историческими текстами, виды интерактивных методов и их практические результаты.

**Ключевые слова:** навыки чтения, интерактивные методы, английский язык, исторический текст, языковая компетенция, контекст, анализ, студент.

### Kirish

XXI asrda ilm-fan, texnologiya va global aloqalarning jadal rivojlanishi xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'rganishni har bir soha vakili uchun muhim zaruratga aylantirmoqda. Tarix yo'nalishi talabalari uchun esa ingliz tilini chuqur o'zlashtirish – bu nafaqat aloqa vositasi, balki ilmiy izlanish, xorijiy manbalarni o'rganish, tarixiy tafakkurni kengaytirish va zamonaviy ilmiy diskursda faol ishtirok etish imkoniyatidir. Ayniqsa, ingliz tilida o'qish ko'nikmasining shakllanganligi talabaniq mustaqil izlanishlar olib borishi, ilmiy maqola va monografiyalarni tushunib o'qishi va ulardan ilmiy faoliyatida foydalanishi uchun asosiy vositaga aylanadi.

Ko'plab talabalar ingliz tilida matn o'qishda qiynaladi, ularning o'qilgan matndan asosiy g'oyani ajratish, kontekst asosida yangi so'z va iboralarni anglash, matn tahlili yoki izoh berish kabi ko'nikmalari sust rivojlangan. Ushbu holat esa an'anaviy o'qitish metodikasida talabaning faolligi yetarlicha qo'llab-quvvatlanmasligi bilan bog'liq. Shu bois, chet tilini, xususan ingliz tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda interfaol yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Interfaol usullar til o'rganish jarayonini qiziqarli, faol va mazmunli qiladi. Talabaning dars jarayonida bevosita ishtirok etishi, guruhlarda ishlashi, tarixiy matnlar asosida bahs yuritishi yoki tahliliy fikrlar bildirish orqali nafaqat o'qish ko'nikmasi rivojlanadi, balki mustaqil fikrlash, tarixiy tafakkur va akademik ifoda qilish qobiliyati ham shakllanadi. Ayniqsa, tarix sohasida ingliz tilidagi matnlar bilan ishlash orqali talaba xalqaro miqyosdagi qarashlar, tahlillar, tarixiy manbalar va kontseptual yondashuvlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mazkur maqolada aynan interfaol metodlarning tarix yo'nalishi talabalari orasida ingliz tilida o'qish ko'nikmasini shakllantirishdagi roli, samaradorligi va amaliy yondashuvlari o'rganiladi. Bundan ko'zlangan maqsad – ingliz tilidagi akademik o'qish jarayonini yanada samarali, faol va natijador qilishdir.

Ingliz tilini o'rganish jarayonida to'rt asosiy til ko'nikmasi (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish) orasida o'qish (reading) ko'nikmasi alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, akademik sohalarda tahsil olayotgan talabalar uchun o'qish faqat bilim manbasi emas, balki tahliliy fikrlash, matn asosida xulosa chiqarish va yangi g'oyalarni o'zlashtirish vositasidir. Tarix yo'nalishi talabalari uchun esa ingliz tilida o'qish ko'nikmasi – xorijiy tarixiy manbalarni o'zlashtirish, ilmiy maqolalarni tahlil qilish va tarixiy kontekstda tushunishga xizmat qiladi.

O'qish ko'nikmasi, birinchi navbatda, tilni bilish darajasini oshirish, ikkinchidan, til egasining madaniyatini chuqur anglash, uchinchi esa, mustaqil ta'lim olish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Chuqur va kontekst asosida o'qish orqali talaba yangi so'z boyligini o'zlashtiradi, grammatik strukturalarni amaliy tarzda anglaydi va til orqali ifodalangan tarixiy tafakkurni tushunadi. Ingliz tili – bugungi global ilm-fan, siyosat va tarixiy izlanishlarning asosiy vositasi sifatida tarixchilar uchun strategik ahamiyatga ega.

Tilshunoslik va pedagogika sohasida o'qish ko'nikmasi kognitiv (bilish), lingvistik (til), sotsiokultural (madaniy) va kommunikativ kompetensiyalar bilan chambarchas bog'liq. Talabalar matnни o'qibgina qolmay, uni tushunishi, asosiy g'oyani ajratishi, mantiqiy bog'liqlarni aniqlashi va matnga nisbatan shaxsiy munosabat bildira olishi kerak. Bu jarayon **Bloom taksonomiyasiga ko'ra bilish, tushunish, tahlil, baholash va yaratuvchanlik** bosqichlarini qamrab oladi. Demak, o'qish faollikni talab qiladi, u passiv jarayon emas.

Shuningdek, **Jan Piagetning** konstruktivistik yondashuviga ko'ra, o'quvchi matnни o'qish orqali yangi bilimlarni avvalgi bilimlari bilan uyg'unlashtirib, shaxsiy kognitiv modelini quradi. **Vygotskiy** esa o'qish jarayonida ijtimoiy muloqot – o'qituvchi, tengdoshlar, guruh ishlari orqali bilim hosil bo'lishini ta'kidlaydi. Bu nazariyalar o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda interfaol usullarni qo'llashning ilmiy asosini tashkil etadi.

O'qish ko'nikmasining yana bir asosiy tarkibiy qismi – bu **metakognitiv strategiyalardir**. Ya'ni, talaba o'z o'qish jarayonini boshqaradi: oldindan taxmin qilish, asosiy g'oyani ajratish, so'zlarni kontekstdan tushunish, izohli o'qish va xotirada saqlash kabi strategiyalarni qo'llaydi. Ushbu yondashuvlar orqali o'qish faqat axborot qabul qilish emas, balki bilimni tahlil qilish vositasiga aylanadi.

Tarix fanining o'ziga xos jihatlaridan biri – faktlarga, manbalarga va matnlarga asoslangan tahliliy fikrlashga urg'u berishidir. Tarixiy tadqiqotlar, ayniqsa, zamonaviy tarixshunoslikda, ko'p hollarda ingliz tilida nashr etilgan asarlarga tayanadi. Misol uchun, tarixiy hujjatlar, xalqaro konferensiya materiallari, nufuzli tarixiy jurnal maqolalari, Britaniya, AQSh, Yevropa tarixchilari tomonidan yozilgan tahliliy ishlar – bularning barchasi ingliz tilida yozilgan bo'lishi mumkin. Bu esa talabalarda yuqori darajadagi o'qish kompetensiyasini talab etadi.

Bundan tashqari, ingliz tilida yozilgan tarixiy matnlar ko'pincha zamonaviy tarixiy terminologiyani o'z ichiga oladi. Ularni tushunish, turli davrlardagi ideologik kontekstda talqin qilish uchun esa chuqur til bilimlari va o'qish tahlil ko'nikmasi zarur. Masalan, "The Enlightenment",

"Colonial discourse", "Cold War narratives", "post-colonial historiography" kabi atamalarni tushunish va izohlash, talabani tarixiy tafakkurda yetuklik sari olib boradi.

Shuningdek, tarix yoʻnalishida taʼlim olayotgan talabalar uchun oʻqish nafaqat bilim olish, balki ilmiy tadqiqot, maqola yozish, diplom ishi tayyorlash, tarjima faoliyati olib borishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday talabalarni ilmiy muhitga tayyorlashda esa oʻqish koʻnikmasi – zamonaviy kompetensiyaning ajralmas qismidir.

### Quyida tarix yoʻnalishi uchun mos interfaol usullar:

#### 1. K-W-L jadvali

**Know – Want to know – Learned** usuli orqali talaba matndan avval nimalarni bilishini, nimani bilmoqchi ekanini va oʻqib boʻlgach, nimalarni oʻrganganini yozadi. Bu metod matnni tahlil qilishga tayyorlaydi.

**Amaliy misol:** Talabalar “Industrial Revolution” mavzusini oʻrganishdan oldin jadvalga “Bilaman” ustuniga sanoat inqilobi haqida mavjud bilimlarini yozadilar, “Bilishni istayman” ustuniga oʻrganmoqchi boʻlgan savollarini yozishadi (masalan, sanoat inqilobi qachon va qanday yuz berdi?), oʻqishdan keyin esa “Oʻrgandim” ustuniga yangi maʼlumotlarni kiritadilar.

**Tavsiyalar:** Dars oldidan oʻquvchilarning bilim darajasini aniqlashda foydalaning; jadvalni guruhda muhokama qildirish orqali fikr almashish va oʻrganishni mustahkamlash mumkin.

#### 2. “Fishbone” (tuxum suyak) diagrammasi

Tarixiy hodisaning sabab va oqibatlarini matn asosida tahlil qilishda qoʻllaniladi. Oʻqish jarayonida sabablar va oqibatlar alohida yoziladi va umumiy xulosa chiqariladi.

**Amaliy misol:** “Causes of World War I” mavzusida talabalarga asosiy sabablarni (millatchilik, ittifoqlar, imperiyalararo raqobat va h.k.) diagrammada joylashtirish va har bir sabab boʻyicha qisqa izohlar berish topshirigʻi beriladi. Soʻngra oqibatlar qismi — urush boshlanishi, yirik oʻzgartirishlar va boshqalar yoziladi.

**Tavsiyalar:** Diagrammani katta qogʻozga chizib, guruh ishida ishlash qiziqarli boʻladi; sabab-oqibat tahlilini chuqurlashtirish uchun tarixiy manbalarni ham kiritish mumkin.

#### 3. Matnga asoslangan debat

Masalan, talabalarga XIX asr mustamlakachiligi haqida ingliz tilidagi matn beriladi. Keyin ularning bir guruhi mustamlakachilik foydali boʻlganini, boshqalari esa zararli boʻlganini himoya qiladi.

**Amaliy misol:** Talabalarga “The Impact of Colonialism on Africa” mavzusida matn beriladi. Bir guruh mustamlakachilikning ijobiy tomonlarini, ikkinchi guruh esa salbiy taʼsirlarini himoya qiladi. Har bir guruh argumentlarini ingliz tilida tayyorlab, debatda ishtirok etadi.

**Tavsiyalar:** Talabalarni dalillarni topishga oʻrgating, murosaga kelish yoki qarshi fikrni hurmat qilish madaniyatini shakllantiring; debatdan soʻng oʻqituvchi yakuniy xulosalarni berishi muhim.

#### 4. Rol oʻynash

Tarixiy shaxslar oʻrtasida muloqot yaratish (masalan, Churchill va Roosevelt oʻrtasida Yalta konferensiyasidagi munozaralar asosida).

**Amaliy misol:** “Yalta Conference” mavzusida Churchill, Roosevelt va Stalin rollarini taqsimlab, ular oʻrtasidagi muzokaralarni ingliz tilida jonlantirish. Har bir talaba oʻz obrazining fikrlarini asoslab, tarixiy munosabatlarni tushuntiradi.

**Tavsiyalar:** Talabalarga tarixiy shaxslar haqida oldindan maʼlumot bering; rol oʻynashdan soʻng guruhda muhokama va tahlil qiling.

#### 5. “Jigsaw” (boʻlaklash) usuli

Katta matn kichik qismlarga boʻlinadi. Har bir talaba bir boʻlakni oʻqiydi, tushunadi va guruhga tushuntiradi. Bu usul oʻzaro oʻrganishga asoslanadi.

**Amaliy misol:** Katta maqola “Causes and Consequences of the French Revolution” mavzusida boʻlaklarga boʻlinadi. Har bir talaba oʻz boʻlagini oʻqib, tushunib, keyin guruhga tushuntiradi. Boshqalar esa savollar berib, tushunmovchiliklarni aniqlaydi.

**Tavsiyalar:** Har bir boʻlakni teng darajada murakkab qilib taqsimlang; talabalarning faolligini ragʻbatlantirish uchun baholash tizimini qoʻllang.

#### 6. QR-kodli matnlar bilan ishlash

Talabalarga tarixiy manbalarning audio/video shakllari taqdim etiladi. Matnni eshitish va ko‘rish orqali multimodal yondashuv yuzaga keladi.

**Amaliy misol:** Tarixiy matn “The Cold War” mavzusida bo‘lib, unga bog‘liq hujjatli filmning qisqacha qismlari QR-kod orqali taqdim etiladi. Talaba matnni o‘qib, so‘ng videoni tomosha qilib, yangi ma‘lumotlarni mustahkamlaydi.

**Tavsiyalar:** Multimodal resurslarni tanlashda sifatga e‘tibor bering; videolar qisqa va mazmunli bo‘lishi kerak; darsdan keyingi muhokama uchun savollar tayyorlang.

### Xulosa

Tarix yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilida o‘qish ko‘nikmasi — bu nafaqat chet tilini o‘zlashtirish, balki ilmiy izlanish, tarixiy tafakkur, madaniy anglash va akademik faoliyatda muvaffaqiyat kalitidir. Interfaol metodlardan foydalanish bu ko‘nikmalarni faollashtirishga, til o‘rganish jarayonini samarali va qiziqarli qilishga xizmat qiladi.

#### Tavsiyalar:

- Tarixiy matnlar asosida darsliklar ishlab chiqish.
- Interfaol metodlarni darslarda muntazam qo‘llash.
- Tarix fanlariga mos terminologiyani ingliz tilida o‘rganishga alohida e‘tibor qaratish.
- Multimodal yondashuvlar – audio, video, infografik vositalardan foydalanish.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards, J.C. & Rodgers, T.S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
2. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
3. Nation, I. S. P. (2009). *Teaching ESL/EFL Reading and Writing*. Routledge.
4. Harmer, J. (2001). *The Practice of English Language Teaching*. Longman.
5. Qodirov, M., & Ergashev, A. (2021). “Ingliz tilini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish”, *O‘zDJTU ilmiy jurnali*, №3.
6. Davronov, A. (2023). “Tarix ta‘limida chet tilini integratsiyalash”, *Pedagogika va Psixologiya*, №2.
7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
8. Piaget, J. (1972). *The Psychology of the Child*. Basic Books.
9. Bloom, B. S. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. Longman.
10. Grellet, F. (1981). *Developing Reading Skills: A Practical Guide to Reading Comprehension Exercises*. Cambridge University Press.
11. Tompkins, Gail E. (2010). *Literacy for the 21st Century: A Balanced Approach*.
12. Gee, James Paul. (2000). *Discourse and Sociocultural Studies in Reading*.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000